



**O‘zbekiston Respublikasida lotin  
yozuviga asoslangan o‘zbek  
alifbosining joriy etilishi. Lotin  
alifbosi bilan tanishish**

# O‘zbekiston Respublikasida lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosining joriy etilishi

O‘zbek-kirill alifbosi 1940-yildan O‘zbekistonda amal qilgan asosiy alifbo. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng Respublikada o‘zbek yozuvini rus grafikasidan yana lotin grafikasi asosidagi yozuvga o‘tkazish haqida fikr-mulohazalar o‘rtaga tashlandi. Bu masala bir yil davomida ommaviy axborot vositalarida keng jamoatchilik ishtirokida atroflicha muhokama qilinib, 1993-yil 2-sentabrda O‘zbekiston Respublikasining „Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida“gi qonuni e‘lon qilindi.

# O‘zbekiston Respublikasida lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosining joriy etilishi

O‘zbekiston Respublikasining “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi Qonunini bajarish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari tasdiqlansin;
2. Respublika vazirliklari, idoralari, mahalliy hokimiyat va boshqaruv idoralari, ommaviy axborot vositalari lotin yozuviga asoslangan O‘zbek alifbosidagi barcha turdagi yozishmalarda, matbuotda, ish yuritishda ushbu qoidalarni joriy qilish yuzasidan tegishli tadbirlarni ishlab chiqsinlar va amalga oshirsinlar;
3. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Oliy va o‘rta ta’lim vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi, Davlat matbuot qo‘mitasi uch oy muddat ichida maktablar uchun qo‘llanma sifatida o‘zbek tilining imlo lug‘atini, kishi ismlari va joy nomlari lug‘atlarini tayyorlasinlar va nashr etish choralarini ko‘rsinlar;
4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Vazirlar Mahkamasining Ta’lim va Fan hamda ijtimoiy masalalar va madaniyat bo‘limlariga yuklansin.

**Vazirlar Mahkamasining Raisi I.Karimov**

*1995-yil 24-avgust 339-son Toshkent sh.*

# O'zbek-lotin alifbosi

|      |      |      |      |    |    |
|------|------|------|------|----|----|
| Aa   | Bb   | Dd   | Ee   | Ff | Gg |
| Hh   | Ii   | Jj   | Kk   | Ll | Mm |
| Nn   | Oo   | Pp   | Qq   | Rr | Ss |
| Tt   | Uu   | Vv   | Xx   | Yy | Zz |
| O'o' | G'g' | Shsh | Chch | ng | '  |

# Lotin yoki kirill – qay biri ma'qul?

1993-yili “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi qonun e‘lon qilingan edi. Oradan qariyb 26 yil o‘tdi, bu orada alifbo bir marta isloh qilindi, unga o‘tish muddati bir necha bor cho‘zildi. Xullas, lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish masalasi ba’zi subyektiv-obyektiv sabablarga ko‘ra haligacha hal etilgani yo‘q.

## Birinchi noqulaylik o‘ va g‘ harflari bilan bog‘liq

Bu harflarni klaviaturada alohida tugmachalarga bog‘lab qo‘yishning iloji yo‘q. Qolaversa, ‘ belgisi tutuq belgisi ’ bilan shaklan o‘xshash. Ularni ifodalash uchun biz klaviaturadagi bir necha (birvarakayiga 5 ta!) tugmalar kombinatsiyasidan foydalanamiz yoki matnni terib bo‘lgach, o‘ va g‘ harflarini “avtoalmashtirish” funksiyasi orqali umumiy almashtiramiz. Bu — masalaning texnik jihati. Amalda esa, masalan, “to‘g‘ri” so‘zidagi ikki qo‘shimcha belgidan birining tushib qolishi ko‘p uchraydi (yo “to‘gri”, yo “tog‘ri”), hatto savodli yozilgan matnlarda ham. Bu harflar matn terishda noqulaylik tug‘diradi.

# Muammonig yechimi...

Yuqoridagi muammoni hal etish uchun Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan o‘ va g‘ harflarini birgina tugmani bosish orqali chiqarib olish mumkin bo‘lgan ilova ishlab chiqildi.

Ilovani istalgan kompyuterga o‘rnatib ishlatish mumkin. Klaviatura tillari qatorida UZB belgisi paydo bo‘ladi. Oddiy klaviaturadan faqat ikki tugmasi bilan farq qiladi:

1. **W** tugmasi bosilsa, **o‘** harfi chiqadi.
2. **`** (kirill alifbosidagi **Ё**) tugmasi bosilsa, **g‘** harfi chiqadi.

Bu ilovadan keyin texnik jihatdan deyarli muammo qolmadi.

# Ikkinchi noqulaylik sh va ch harflari bilan bog'liq

Bu harflar ingliz yoki boshqa tillar uchun qulaydir (chunki ularda aksar soʻzlar qisqa, sh, ch harflarining bir soʻzda ikki marta ishlatilishi yoki oʻzakra shu harflar ishtirokida qoʻshimcha qoʻshilishi uchramaydi), ammo oʻzbek tilida bu harflar noqulaylik keltirib chiqarmoqda. Shu undoshlar bir necha marta ishtirok etgan qashshoq, choʻchish, shishish, pashsha, ishchi, uchrashish kabi soʻzlar yozishga ham, oʻqishga ham noqulay. Shu sababli ijtimoiy tarmoqlarning koʻpchilik foydalanuvchilari harflarni allaqachon w, 6, 4 kabilar bilan almashtirib olishgan. Qatordan qatorga koʻchirganda esa kompyuter ikki belgini bir-biridan ajratib yuboradi. Bu qoʻsh harflarning alifboga kiritilishi (eʼtibor bering, ingliz alfavitida ular yoʻq, harf birikmalari sifatida alohida oʻrgatiladi) va alifbomizda yoʻq “s” harfi ishtirokida qoʻsh harfning yasalishi (ch) esa mantiqsizlikdan oʻzga narsa emas.

Shunday boʻlsa ham, bu sabablar alifboni yaramaydi deb xulosa qilishga sabab boʻlolmaydi.



# Uchinchi noqulaylik — “ts” tovushining hozirgi lotin alifbosida alohida harf bilan berilmagani

Biz “ts”ni o‘rniga qarab “ts” yoki “s” bilan ifodalaymiz. To‘g‘ri, “ts” turkiy tillar uchun yot tovush. Ammo til taraqqiyoti natijasida bu tovush ishtirokidagi internatsional so‘zlar, terminlardan keng foydalanayapmiz. Ko‘pchilik “ts”ni hamma o‘rinda “s” deb talaffuz etish va yozishni taklif qilayapti. Lekin shunday atamalar borki, “s” bilan yozilganda, omonim bo‘lib qoladi: sanga – sanga, seriy – seriy, sokol – sokol va hokazo. Bu aynan shunday matnlarni ko‘p yozadigan mutaxassislar, abituriyentlar va talabalar tomonidan ma'qullanmayapti.

Bunday so‘zlarning kamligi, asosan ilmiy atamalardagina uchrashi tufayli bu noqulaylik ham alifboni o‘zgartirishga yetarli asos bo‘la olmaydi. Imlo qoidalariga kerakli qismlarni kiritish kifoya.

# Nega lotin kerak?

Eng e'tiborga molik tomoni, murakkab alifbo tufayli jiddiy to'siq va muammolar yuzaga kelgach, yana ortga qaytadigan bo'lsak (o'zi bir marta shunday bo'lgan: 1929-yilda 9 ta unlili alifboni qabul qilib, 1934-yilda uchta unli harfdan voz kechganmiz), unda shusiz ham chalkash bo'lgan yozuvga doir ishlarimiz yanada chigallashadi, yoshlarimizning savodxonligi battar yomonlashadi — zamondoshlarimiz oldida ham, kelajak avlod oldida ham uyatga qolamiz.

Eng ma'qul yo'l — hozirgi o'zbek-lotin alifbosida qolib, imlo qoidalarini qayta ishlab chiqish.